



XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

TRANSCHEGARAVIY GIDRORESURLARDAN BARQAROR FOYDALANISHNING
SIYOSIY-HUQUQIY MEKANIZMLARI VA ULARNING FALSAFIY-MA'NAVIY ASOSLARI



2-IYUN
2026-YIL



Qo'qon shahri,
Qo'qon davlat universiteti



Xalqaro
miqyosda



OROL DENGIZINING SALBIY OQIBATLARINI BARTARAF ETISHDA YOSHLARNING FAOLLIGINI OSHIRISH ZARURIYATI.

Abdujalilova Muxlisaxon Abduxalil qizi

Qo'qon DU o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada jahondagi globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan ayni paytda dunyo miqyosida irrigatsiya tizimini intensiv ravishda rivojlantirish, suv xo'jaligini samarali boshqarish va sug'orish infrastrukturasi takomillashtirish, dexqonchilikda agrotexnik tadbirlarni qo'llash, sug'orma yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha innovatsiyalarni tatbiq etish, suv resurslaridan tejamli va oqilona tarzda foydalanish bilan bog'liq masalalar yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: globallash jarayoni, suv resurslari, texnologiya, investitsion loyixalar, Orol dengizi, irrigatsiya tizimi, iqlim o'zgarishi, taqchillik, islohot.

Jahondagi globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan ayni paytda dunyo miqyosida irrigatsiya tizimini intensiv ravishda rivojlantirish, suv xo'jaligini samarali boshqarish va sug'orish infrastrukturasi takomillashtirish, dexqonchilikda agrotexnik tadbirlarni qo'llash, sug'orma yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha innovatsiyalarni tatbiq etish, suv resurslaridan tejamli va oqilona tarzda foydalanish muxim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'kidlash joizki, agrar va sanoat ishlab chiqarishi, ijtimoiy hayot rivojlanishining asosini, shubhasiz, suv xo'jaligi tizimi tashkil etadi. Zero, qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotning taraqqiy etishi bevosita irrigatsiya-melioratsiya soxalari bilan uzviy bog'likdir.

Xar yili sug'orish tarmoqlarini, nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish maqsadida davlat byudjetidan katta miqdorda mablag' ajratilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra XXI asr boshlariga qadar kam suvli mavsum har 6-8 yilda kuzatilgan bo'lsa, bu hozirda ikki baravarga tezlashib, har 3-4 yilda takrorlanmoqda. Qolaversa, suv tanqisligi faqat bizning yurtida emas, balki butun sayyoramizda kuzatilayotgan ekologik muammolardan biridir. Aslida bu iqlim o'zgarishi, suvga bo'lgan talabning oshishi, uning manbalari tobora kamayib ketayotgani bilan bog'liq.

Ta'kidlash joizki, globallashuv jarayonlari tobora kuchayib borayotgan davrda bugungi kunda dunyoning 1 mlrd. dan ko'proq aholisi toza ichimlik suvisiz qiynalmoqda. Butunjahon Suv Kengashi ma'lum qilishicha, 2050 yilga borib sayyoramiz aholisining uchdan ikki qismi chuchuk suv tanqisligi muammosiga duchor bo'ladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, talaba yoshlarda ekologiya sohasidagi O'zbekiston uchun Orol muammosi eng muhim masalalardan biri hisoblanishi xaqida tasavvurlarni shakllantirish zarur.

Orol dengizi ekologik halokatining jiddiyligini hisobga olgan holda, 2008 yil 11-12 mart kunlari Toshkent shahrida "Orol muammosi, uning aholi genofondi, o'simlik va hayvonot olamiga ta'siri va uning oqibatlarini yumshatish choralari

bo'yicha xalqaro hamkorlik" mavzusida xalqaro ilmiy anjuman tashkil qilindi. Ushbu anjumanda BMT vakillari ham faol ishtirok etdi.

1992 yil 29 avgustda Nukus shahrida Orol va Orolbo'yi muammolari bo'yicha xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilari Markaziy Osiyo davlatlari, Rossiya Federatsiyasi va MDHning boshqa mamlakatlari hukumatlari, parlamentlari va jamoatchiligiga Orol havzasi muammolarini hal qilish uchun xalqaro jamg'arma tashkil etish yuzasidan murojaat bilan chiqishdi.

1993 yilning 4 yanvarida Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi va Turkmaniston prezidentlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi va uning yakunida davlat rahbarlari tomonidan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi (OQXJ)ni tashkil qilish to'g'risida qaror qabul qilindi. Mazkur davlatlararo tashkilotning asosiy vazifasi sifatida Orol fojeasi ta'siriga uchragan hududlarni ekologik sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan ekologik va ilmiy-amaliy loyiha va dasturlarni ishlab chiqish va moliyalashtirish, shuningdek, hududning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish belgilandi.

O'zbekiston Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi a'zo davlatlaridan biri sifatida, uning faoliyatini har tomonlama mustahkamlashga katta ahamiyat bermogda. O'zining jamg'armadagi raisligi davomida (1997-1999 yy.) O'zbekiston Orol dengizi havzasida barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi huquqiy bazasini rivojlantirish, xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar bilan aloqa va o'zaro hamkorlikni o'rnatish bo'yicha faol harakatlarni amalga oshirdi. Jumladan, 1997 yil oktyabrda Toshkent shahrida Xalqaro donorlarning texnik uchrashuvi o'tkazilib, uning natijasida "Orol dengizi havzasidagi suv zahiralari va atrof-muhitidan foydalanish" xalqaro loyihasini amalga oshirishga kirishildi.

O'zbekistonning tashabbusi bilan 2008 yil martda Toshkent shahrida Orol bo'yicha xalqaro konferensiyaning o'tkazilishi Orol muammosining xalqaro miqyosda keng ko'rib chiqilishi uchun ancha katta turtki bo'ldi. Buning isboti sifatida anjumanda 90 dan ortiq xalqaro tashkilotlar, Yaponiya, Germaniya, Xitoy, arab mamlakatlarining davlat moliyaviy institutlari va ko'zga ko'ringan tadqiqot markazlari vakillarining ishtirokini keltirish mumkin. Forum yakuniga ko'ra, Toshkent Deklaratsiyasi va Orol fojeasining ayanchli oqibatlarini bartaraf etish uchun umumiy miqdori 1,5 milliard AQSh dollariga yaqin bo'lgan loyihalarni amalga oshirishni ko'zda tutuvchi ishlar rejasi qabul qilindi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Global ekologiya jamg'armasi, turli xalqaro tashkilotlari va horijiy davlatlarining faol ko'magida Orolning qurigan qismida delta suv zahiralari infrastrukturasini kengaytirish, zovur suvlarini qaytarish, suv zahiralardan foydalanish samaradorligini oshirish, sahro kengayishi, chang va tuzlar uchishining oldini olish maqsadida daraxt ekinzorlari maydonini kengaytirish va boshqa shu kabi ishlar bilan bog'liq qator loyihalar amalga oshirilyapti. Yuqorida ko'rsatilgan hududdagi noxush holatni sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan loyiha va dasturlarni amalga oshirish uchun faqat oxirgi o'n yil ichida dollar hisobida 1 milliarddan ziyod mablag', shu jumladan, xorijiy sarmoyalar, texnik ko'mak va grantlar hisobidan 265 million AQSh dollariga yaqin mablag' sarflandi.

Iqlim o'zgarishi bilan mangu muzliklar zaxirasining kamayib borishi, axoli sonining o'sishi xamda ularni toza ichimlik suvi, kiyim-kechak va oziq-ovqat maxsulotlari xamda ish bilan ta'minlash zarurligi, qishlok xo'jaligi maxsulotlari yetishtirishga ko'p miqdorda suv ajratishga va majburligimiz, shuningdek, atrof-muxit flora va faunasining o'zgarishi xam boshqa turli sabablar bizni, ya'ni mamlakatdagi barcha suv iste'molchilarini suvdan samarali foydalanishga, uni asrab-avaylashga, suv taqchilligi sabab yuzaga keladigan sharoitga moslashishga undaydi. Bu borada Respublikamizda zarur me'yoriy xujjatlar ishlab chikilib, ma'lum ishlar amalga oshirilmoqda.

Markaziy Osiyoda suv taqchilligiga moslashishni Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha mamlakatlarda birgalikda olib borish zarur. Suv taqchilligi sharoitida atrof-muxitni toza saklash va barcha suv iste'molchilarining suvga bo'lgan talabini kondirish uchun quyidagilarga e'tibor berish talab etiladi:

- atrof-muxit muxofazasi va suv resurslaridan foydalanish buyicha mintaqaviy qonunlar kabul kilish;

- mamlakatlarda suv resurslaridan samarasiz foydalangan va atrof muxitga zarar yetkazganlarga nisbatan kat'iy choralar ko'ruvchi (xattoki jinoiy javobgarlikka tortuvchi) umumiy qonunlar ishlab chikish;

- axolini suv takchilligi sharoitida atrofni-muxitni toza saqlash xamda suv resurslaridan samarali foydalanishga o'rgatish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qo'ldoshev J. Suv manbalaridan oqilona foydalanaylik // O'zbekiston ovozi, 2012 yil 27 aprel.
2. Mahmudov O. Suv resurslaridan tejamli foydalanish hayotiy zaruriyat // O'zbekiston ovozi, 2013 yil 28 mart.
3. www.lex.uz
4. www.norma.uz